O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

«ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ADABIY MEROSINING SHARQ XALQLARI MADANIYATI TARIXIDAGI O‘RNI»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-NAZARIY ONLAYN KONFERENSIYA

MATERIALLARI

Andijon – 2023

Konferensiya “**Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540-yilligini keng nishonlash to‘g‘risida**”gi **Prezident qarori (PQ-20** son, 25.01.2023-y.) ijrosini ta’minlash maqsadida o’tkazildi.

Mazkur xalqaro ilmiy anjuman maqolalari va tezislari to‘plamida Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi dunyo olimlari talqinida, Boburning nazmiy merosi va uning turkiy she’riyatdagi o‘rni, “Boburnoma” asarining Sharq nasri tarixidagi ahamiyati, Boburning filologik asarlari tadqiqi, Bobur asarlarining til va uslubiy xususiyatlari, Bobur davri va mumtoz adabiyot masalalariga doir tadqiqotlar, ilmiy axborotlar o‘rin olgan.

Ushbu ilmiy maqola va tezislar to‘plami o‘zbek adabiyotshunosligi, tarix, folklorshunoslik yo‘nalishida ilmiy izlanishlar olib borayotgan professor o‘qituvchilar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistr talabalar uchun mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir

f.f.d., prof. D.H.Quronov

Tahrir hay’ati:

f.f.d. B.Rahmonov

f.f.f.d. (PhD) Z.Mamajonov

f.f.d. D.Abdullayeva

f.f.f.d. (PhD) S.Islomova

f.f.f.d. (PhD) O.Kuchkarov

f.f.f.d. (PhD) N.Azizov

O’qit. T.Tojiddinov

BOBUR SHE’RIYATIDA MILLIY-MADANIY FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING O‘ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA TARJIMASI MUAMMOLARI

Oqmamatova Muqaddas Farxodovna
ToshDO‘TAU mustaqil izlanuvchisi
muqaddas.oqmamatova@bk.ru

Annotatsiya. *Mazkur maqoladan Zahiriddin Muhammad Bobur she’rlarining o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjimasida frazeologik birliklarning o‘ziga xos murakkabliklari va har ikkala tilning lisoniy imkoniyatlari, tarjimada shoir badiiyatini to‘la namoyon eta oladigan darajadagi yondashuv borasidagi fikrlar, tahlillar o‘rin olgan.*

Abstract. *In this article, the unique complexities of phraseological units and the linguistic possibilities of both languages in the translation of Zahiriddin Muhammad Babur’s poems from Uzbek to English, the opinions and analyzes of the approach that can fully express the poet’s artistry in translation are included.*

Аннотация. *В данной статье включены уникальные сложности фразеологизмов и лингвистические возможности обоих языков при переводе стихов Захириддина Мухаммада Бабура с узбекского на английский язык, мнения и анализ подхода, способного в полной мере выразить артистизм поэта в переводе.*

Kalit so‘zlar: *frazeologik birliklar, lisoniy, lirik, muqobil, ma’no ottenkalari, sinonimik qator, qofiya va hijo.*

Key words: *phraseological units, linguistic, lyrical, alternative, shades of meaning, synonymous line, rhyme.*

Ключевые слова: *фразеологизмы, лирические, альтернативные, смысловые тона, синонимические ряды, рифма.*

Milliy-madaniy frazeologik birliklarning o‘ziga xos jihatlardan biri shundaki, mazkur til birliklari ona tilining qaysi sohasida qo‘llanishiga ko‘ra turlicha ma’no ottenkalarini ifodalashi mumkin.

Masalan, mumtoz adabiyotda, ayniqsa, bu jihat alohida o‘rin tutadi.

Bobur – o‘zbek adabiyotining eng yetuk vakili o‘laroq, o‘z asarlarida turkiy tilning lisoniy imkoniyatlarini o‘ta nozikta’blik bilan ochib bergan ijodkor. Uning nafaqat “Boburnoma” singari memuar asarida, balki shoir poeziyasida ham milliy-madaniy frazeologik birliklar o‘ziga xos mahorat bilan talqin etiladi.

Shu bois Bobur she’riyatini tom ma’noda anglash, idrok etish uchun, eng avvalo, shoir mahorati, salohiyatining mazkur jihatlarini ham iloji boricha to‘g‘ri talqin etmoq mumtoz adabiyotdagi lirik asarlar tarjimasida eng asosiy rolni o‘ynaydi. Tarjimon har bir qo‘llangan iboraning tub ma’nosini to‘g‘ri ifodalay olishi asarning o‘zga til vakillari uchun tushunarli bo‘lishida asosiy o‘rin egallaydi.

Zahiriddin Muhammad Bobur she’riyati o‘zining obrazlar silsilasi bilan frazeologik birliklarning eng mukammal qadriyatlar bilan sug‘orilgan ma’nolarini aks ettiradi. Bu singari asarlar ingliz tiliga tarjima qilinganda, albatta, asarning ma’nosiga putur yetkazmaydigan darajada tarjimonning mahorati kerak bo‘ladi.

Bobur g‘azallari tarjimasida lirik asar talablaridan kelib chiqib, qofiya va hijolar ilmidan xabardorlik ham tarjimada muhim bir jihatlardandir.

Yo qahr-u g‘azab birla meni tufroq qil!

Yo bahr-u inoyatingga mustag‘roq qil!

Yo Rab, sengadur yuzim qaro gar oq qil.

Har nav’ sening rizoying erur andoq qil! [1: 81]

Boburning so‘zga bo‘lgan munosabati, so‘z latofatini his eta olishi har bir baytda o‘ziga xos mahorat bilan ifodalanadi.

Jumladan, “sening oldingda yuzim qaro” jumlasida ham ana shunday o‘zgacha ifodani ko‘rishimiz mumkin.

“Yuzi qarolik” ifodasi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da shunday ma’noda ifodalanadi: “yuzi qora. Aybdor, gunohkor holatli” [3: 76] ma’nolarini anglatsa, bilaks, “yuzi oq” iborasi esa “yorug‘ yuz” birikmasi ma’nosiga to‘g‘ri keladi. Ya’ni tarjimon “yorug‘ yuz” birikmasining ma’nosi “hech qanday kamchilik yoki aybsiz holda” [3: 76] ekanligini yaxshi tushungan holda ingliz tiliga o‘girishi joiz.

Ingliz tilida “yuzi qora” frazeologik birligini “guilty”, “culpable” sifat so‘z turkumiga oid yoki “sinnar”, “culprit” [4] ot so‘z turkumiga oid so‘zlar bilan

ifodalash mumkin. Tarjimada yuqoridagi so‘zlarning qay birini qo‘llash konteksga hamda gapdagi so‘zning qo‘llanish o‘rni ya’ni qaysi gap bo‘lagi vazifasini ifodalab kelayotganiga bog‘liq.

Shuningdek, “yorug‘ yuz” frazeologik birligini ham ingliz tilidagi tarjimada “innocent”, “guiltless”, “infallible” so‘zlarini konteks ma’nosiga qarab qo‘llash mumkin. [4]

Yoki:

Bobur, bo‘lib turur ikki ko‘zim yo‘lida to‘rt,
Kelsa ne bo‘ldi qoshima bir-bir mango manga. [1: 18]

O‘zbek tilidagi eng faol frazeologik birliklardan biri, ya’ni “ko‘zi to‘rt bo‘lmoq”dir. Bu frazeologik birlik orqali shoir sog‘inchni eng avj nuqtalarda tasvirlaydi. Mazkur ibora “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha ifodalanadi: “ko‘zi to‘rt (bo‘lmoq) yo‘liga intizor”. [2: 446]

Yuqoridagi iboraning ingliz tilida ham bir nechta muqobillarini qo‘llash mumkin. Masalan, “to look forward to”, “to wait with four eyes” [”. [3: 892] birikmalari konteksning ma’nosiga hamda gapda qo‘llanish o‘rniga qarab tarjimada foydalaniladi. “To look forward to” iborasini so‘zma- so‘z tarjima qilganda “oldinga qaramoq” ma’nosini ifodalab kelsa, lekin “to wait with four eyes” iborasi esa so‘zma- so‘z tarjima qilinganda “to‘rt ko’zi bilan kutmoq” degan ma’noda anglatib o‘zbek tilidagi “ko‘zi to‘rt bo‘lmoq” iborasiga o‘xshash hisoblanadi. Lekin ko‘chma ma’no jihatidan ingliz tilida ikkala iboraning ham ma’nosi bir xil.

Ko‘nglimni chu ul pari olibtur,
Devona bo‘lurg‘a ne qolibtur?!

Lirik asarlarda qahramonning ruhiy holatini ochib berishda shoir iboralardan unumli foydalanadi. “Ko‘ngil olmoq” frazeologik birligi ham lirik qahramon kechinmalarini obrazli tarzdagi ifodali o‘laroq namoyon bo‘lgan.

“Ko‘ngil olmoq” birikmasining ma’nolari “Izohli lug‘at”da bir necha xil qilib berilgan:

“Ko‘ngil olmoq” 1) xursand qilmoq;
2) birovning sevgisini qozonmoq,

o‘ziga mehr-muhabbat uyg‘otmoq, rom qilmoq. [2: 460]

Ko‘rinadiki, frazeologik birliklarning ma’no ottenkalari kengayib borgani sari fikrda ham ta’sirchanlik kuchaya boradi.

Mazkur iboraning ham ingliz tilida bir nechta muqobillari mavjud bo‘lib, ulardan tarjimon eng ma’no jihatdan yaqinini tanlashi talab etiladi. Ingliz tilida “to exhilarate”, “to please”, “to charm”, “to cheer”, “to gratify”[http://library.navoiy-uni.uz] so‘zlari o‘zbek tilidagi “ko‘ngil olmoq” iborasiga ma’no jihatdan yaqin bo‘lib, ulardan aynan qaysi birini tarjimada qo‘llash tarjimonning mahoratiga qarab tanlanadi. Ya’ni bu yerda konteksning ma’nosi alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki ingliz tilidagi so‘zlarning nafaqat “xursand qilmoq”, “ko‘ngil olmoq”, balki boshqa ko‘plab ma’nolari ham mavjud.

Agarchi sensizin sabr aylamak, ey yor, mushkildur,
Sening birla chiqishmoqlik dog‘i bisyor mushkildur. [1: 26]

Lirik qahramon holati: yorsiz ham yashash qiyin, ammo u bilan murosa qilmoq, ya’ni chiqishmoq ham oson emas.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da: “chiqishmoq – murosa qilmoq, ahil, ittifoq, el bo‘lib yashamoq yoki ishlamoq”,-deya ta’rif beriladi.

Albatta, tarjimon yuqorida keltirilgan frazeologik birliklarning omonimlik xususiyatlaridan ham xabardor bo‘lishi va tarjimada ana shu jihatlarni ko‘zdan qochirmasligi kerak. Tarjimonga bu jarayonda ingliz tilida ushbu frazeologik birlikning quyidagi variantlarini taklif etishimiz mumkin: “to get on with somebody”, “to get along”, “to get on”. [3:630] Ingliz tilidagi frazeologik birikmalarning barchasi bir xil ma’noga ega hisoblanib, konteksda istalgan birini o‘zbek tilidagi “chiqishmoq” ma’nosi o‘rnida qo‘llash mumkin.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Bobur she’riyatida o‘zbek tilining lisoniy imkoniyati mohirona tarannum etiladi. Shoir quyma satrlarda bor ichki kechinmalarini xalqona iboralar bilan to‘yintiradi.

Ayniqsa, lirik qahramon holatini ochib berishda uning o‘ziga xos obrazlar va tasvir-u talqinlar yo‘li bor.

Tarjimondan bu jihatlar xuddi shunday mahoratni, ya’ni har ikkala tilda: o‘zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklar zahirasining eng nozik jihatlarini to‘la anglagan holda tarjimaga yondashishini talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Devon. Toshkent:1994, “Fan” nashriyoti.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent:2008, 5-jild.
3. Macmillan English dictionary for advanced learners. Second edition. 2012.
4. http://library.navoiy-uni.uz

TAKRORLASH VA MUSTAHKAMLASH DARSLARIDA BOBURNING LISONIY QARASHLARIDANFOYDALANISH

(ona tili darslari misolida)

O’rmonova Dilfuza Mamasalievna
Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktabi
o’qituvchisi, erkin tadqiqotchi
ORCID NO: 0000-0001-7356-1560
ormonova.dilfuza@mail.ru

Annotatsiya: *Zahiriddin Muhammad Boburning turli til sohalari: fonetika, toponimiya, leksikologiya, lahja va adabiy til munosabatlari, so’zlar etimologiyasi, ma’nolari va uslubiyatiga oid ilmiy kuzatishlari “Boburnoma” asarida o’z ifodasini topgan.Bobur Mirzo qoldirgan ulkan merosni yoshlarimiz orasida keng targ’ib qilish uning asarlarini umumta’lim maktablarining ona tili darslarida lisoniy tahlil va tadqiq etishni yanada kuchaytirishni taqazo etadi.*

Mazkur maqolada 7-sinf ona tili darslarida Bobur asarlari tili va uslubiy xususiyatlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan, integrativ yondashuv asosida o’rganishning samarasi, afzalliklari haqida so’z boradi. Integratsion darslarning metodik talablari, bunday darslarni tashkil etishda qanday jihatlarga e’tibor qaratish lozimligi haqida metodik tavsiyalar beriladi.

Kalit so’zlar: *fonetika, toponimiya, leksikologiya, lahja va adabiy til munosabatlari, so’zlar etimologiyasi, ma’nolari va uslubiyati, integratsion darslar, mantiqiy va kretiv fikrlash, kommunikativlik, lingvistik kompetentsiya.*

Annotation: *Zahiriddin Muhammad Babur's scientific observations on various linguistic fields: phonetics, toponymy, lexicology, dialect and literary language relations, etymology, meanings and methodology of words are expressed in the work "Boburnoma". Wide promotion of the great heritage left by Babur Mirza among our youth is the general education of his works. requires further strengthening of linguistic analysis and research in the mother tongue classes of their schools.This article talks about the effectiveness and advantages of learning*